



Nilufar TOSHEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: nilufartosheva83@gmail.com

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD N.Kobulova taqrizi asosida

FOLKLORIZMLARNING TARIXIY ROMANLARDA IFODALANISHI: MAQOLLAR VA XALQ IBORALARI MISOLIDA (NURALI QOBULNING "BU DUNYO DO'ZAXI YOXUD BOBURSHOH VA SHAYBONIYXON" TARIXIY ROMANI ASOSIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tarixiy romanlarida folklorizmlarning — ayniqsa, maqol, naql va xalq iboralarining badiiy funksiyalari, ularning obraz yaratish, davr ruhini berish hamda milliy tafakkurni ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqol va iboralarning tarixiy roman poetikasidagi o'rni tahliliy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarixiy roman, badiiylik, maqol, naql, xalq iboralari, milliy ruh, poetika, obraz, intertekstuallik.

THE REPRESENTATION OF FOLKLORISMS IN HISTORICAL NOVELS: A CASE STUDY OF PROVERBS AND FOLK EXPRESSIONS (BASED ON NURALI QOBUL'S HISTORICAL NOVEL "THIS WORLD'S HELL OR BABUR SHAH AND SHAYBANI KHAN")

Annotation

This article analyzes the artistic functions of folkloric elements - especially proverbs, sayings, and folk expressions - in Uzbek historical novels, examining their role in character creation, conveying the spirit of the era, and expressing national mentality. Additionally, the significance of proverbs and expressions in the poetics of historical novels is elucidated through analytical approaches.

Key words: Historical novel, artistry, proverb, saying, folk expressions, national spirit, poetics, character, intertextuality.

ОТРАЖЕНИЕ ФОЛКЛОРИЗМОВ В ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ: НА ПРИМЕРЕ ПОСЛОВИЦ И НАРОДНЫХ ВЫРАЖЕНИЙ (НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКОГО РОМАНА НУРАЛИ КАБУЛА "АД ЭТОГО МИРА, ИЛИ БАБУР-ШАХ И ШЕЙБАНИ-ХАН")

Аннотация

В данной статье анализируются художественные функции фольклоризмов в узбекских исторических романах - в особенности пословиц, изречений и народных выражений, их роль в создании образов, передаче духа эпохи и выражении национального мировоззрения. Также на основе аналитических подходов освещается место пословиц и народных выражений в поэтике исторического романа.

Ключевые слова: Исторический роман, художественность, пословица, изречение, народные выражения, национальный дух, поэтика, образ, интертекстуальность.

Kirish. O'zbek adabiyotida tarixiy roman janri XX asr ikkinchi yarmidan boshlab alohida e'tibor qozondi. Bu janr orqali yozuvchi nafaqat tarixiy voqealarni badiiy talqin qiladi, balki o'sha davrning madaniy, ijtimoiy, ruhiy holatini ham ifodalaydi. Tarixiy romanlar xalq hayotining aks ettirilishida realistlik ifoda vositalariga tayansa-da, ularning badiiy kuchi asosan xalq og'zaki ijodi namunalari – ayniqsa, maqol, naql va iboralar orqali kuchayadi. Bunday unsurlar nafaqat matnga milliy rang-baranglik baxsh etadi, balki tarixiy voqealarga bo'lgan ishonchni oshiradi, obrazlarning ichki olamini ochishda muhim vositaga aylanadi.

“O'zbek adabiyotida mashhur tarixiy shaxslar hayoti asosida yaratilgan romanlarning syujet yo'nalishida ham, prototipiga ega bo'lmagan to'qima obraz yoki voqealar silsilasi aks ettirilgan asarlarda ham, qahramonlar nutqining stilizatsiyasida ham tarixiylik bosh ijodiy prinsip sifatida bo'y ko'rsatganini kuzatish mumkin” [1].

Tarixiy romanlarda til vositalari, ayniqsa, xalqona iboralar o'sha davr muhitini badiiy ifodalashga xizmat qiladi. Maqol va naql kabi janrlar xalqning hayotiy tajribasi, qarashlari, e'tiqod va qadriyatlarini o'zida jamlagan bo'lib, ular roman matnida ishlatilganda realizmga xos tabiiylikni kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Muayyan bir xalqning milliy-ma'naviy, psixologik xususiyatlarini voqea-

hodisalar tasviri jarayonida badiiy ifodalay olish ham adibning mahoratini belgilaydi. Personajlarning milliylikini ko'rsata olish uchun ularning faqat tashqi qiyofalarini, milliy belgilarini ta'kidlashning o'zigina kifoya emas. Milliy xarakter, milliy psixologiya, dunyoqarashni ham badiiy asarda aks ettira olish uchun o'sha xalqning ruhiy-ma'naviy olamini ham san'atkorning zukko nigohi bilan ko'ra bilmoq kerak” [2].

Xuddi shunday o'z asarlarida milliy ruh, milliy dunyoqarash, milliy xarakter yarata olgan zamonaviy o'zbek adabiyoti yozuvchilaridan Nurali Qobulning “Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon” tarixiy romanida so'nggi temuriy zoda va Hindistonda qariyb uch yuz ellik yil hukm surgan Boburiylar davlati va saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur ota yurti va ona tuprog'ida ulug' bobodan meros davlat hamda mamlakatni saqlab qolmoq yo'lida raqibi Muhammad Shayboniyxonga qarshi olib borgan omonsiz mujodalarning parda orqasi, mohiyati va falsafasini anglashga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Roman syujetida ishtirok etgan folklorizmlarni tahlil qilish ekanimiz, ijodkorning xalq maqol, naqlaridan hamda xalq iboralaridan juda ko'p o'rinlarda foydalanganligini guvohi bo'lamiz. Undan tashqari adib asarning deyarli barcha qismiga epigraf sifatida maqollardan foydalanganligi ko'zga tashlanadi. Albatta,

tarixiy romandagi folklorizmning leksik turi, ya'ni leksik folklorizmlar asarning badiiy syujeti uchun ma'lum bir funksiyalarni bajaradi.

Ijodkor tomonidan ishlatilgan leksik folklorizmlar obrazlar tafakkurini ochib ko'rsatish uchun hamda tarixiy davrda hukm surgan ijtimoiy-ruhiy holatni ifoda etish vazifalarini ham bajaradi.

Maqollar har bir xalqning mentaliteti, tafakkuri, tarixiy xotirasi va axloqiy me'yorlarini ifodalovchi og'zaki janrdir. Tarixiy romanlarda ushbu elementlar ko'pincha personaj nutqida, muallif nutqida va voqealar taqdimida uchraydi.

Tarixiy romanlarda maqollar o'ziga xos badiiy vazifalar bajaradi.

Xarakter yaratish – har bir personajning nutqida o'ziga xos maqollar ishtirok etgan bo'lsa, u obrazning hayotga qarashi, tajribasi, ijtimoiy maqomini ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Nurali Qobulning ushbu tarixiy romanida ishlatilgan maqollarning ko'pchiligi Shayboniyxon va Boburshoh tarafidan aytilgan.

“ – Ular qancha o'zlaridan ketib sizni toshparron qilsalar-da, sovuqonlikni qo'ldan bermang. Puxta bo'ynidan ilinar, go'l oyog'idan. Nonni nanna deb yurgan, o'q zarbi-yu qilich zaxmini ko'rmagan, jang maydoni, qatl va harbni tasavvur etmagan bu bebosh chapanilarni boplab jazolamoqqa hozir turing. Pishiqlik odamning ishi besh, shoshma-shosharning ishi va ichi bo'sh [3]”

Shayboniyxon aqlli, kuchli bilim va tafakkur egasi bo'lgan. U adabiyotga, g'azal yozishga qiziqqan hamda kitob o'qishni sevgan. Yuqorida uning nutqidan olingan maqol va xalq iboralarida ham uning uzoqni o'ylaydigan, tajribaga boy, ishbilarmon sarkarda ekanligi anglashiladi. Bosib olgan joyda askarlarini puxtalikka, sergaklikka chaqiryapti. Go'l – har narsaga ishonaveradigan, sodda, laqma odam. “Nonni nanna” deb yurish bu yosh bola nutqida uchraydigan so'z bo'lib, bolacha ish tutmaslik kerakligini shu gaplar orqali yetkazmoqda. “Pishiqlik odamning ishi besh, shoshma-shosharning ishi va ichi bo'sh” ushbu maqol ham xalq orasida juda ko'p ishlatiladi. Bunda Shayboniyxon harbiylarining pishiqlik va puxta ish ko'rishini ta'kidlamog'ida.

“Shundan so'ng Olloh ol qulim desa Yunusxon-u Sultonxon Mahmudxonlarning taxti sizga nasib etajak! – inisini umidlantirdi Shayboniyxon. – O'ng ko'zi ila boqib, ishimiz baroridan kelmoqda! Davr kelganda surmoq, davraga tushganda uloqni tashlamoq kerak, inim! [3]”

“Davr kelganda surmoq, davraga tushganda uloqni tashlamoq kerak, inim!” Ushbu frazeologik birikma va undalma (inim!) vositasi orqali qurilgan:

“Davr kelganda surmoq” — bu ibora imkoniyat tug'ilganda uni boy bermaslik, vaziyatdan foydalanish, vaqtda harakat qilish, degan ma'noni anglatadi [4].

“Davraga tushganda uloqni tashlamoq” birikmasi esa “uloq” o'yini orqali berilgan ramziy ma'no hisoblanib, ishga kirishgan paytda g'ayrat va qat'iyat bilan harakat qilish, vazifani oxirigacha bajarish tushunchasini beradi.

Ushbu ibora xalqona ruh, tasviriylik va harakatga da'vat unsurlarini birlashtiradi. Tarixiy romanda ushbu ibora quyidagi badiiy vazifalarni bajarishi mumkin:

1) personajning hayotiy tajribasini ko'rsatadi; 2) davrning ruhiy-ijtimoiy holatini ifodalaydi; 3) milliy mentalitetdagi jasorat, mas'uliyat va g'ayratni targ'ib qiladi.

Undan tashqari bu xalqona ibora o'zida vaqtning qadrlash, harakatdan cho'chimaslik, jasoratli bo'lish singari qadriyatlarini mujassamlashtirgan.

Tarixiy romanda qo'llangan leksik folklorizmlar orqali Shayboniyxonning ba'zi xarakter-xususiyatlari ham ochib ko'rsatiladi. Shayboniyxon biror yerga yurushga chiqarkan uni hech kimga so'zlamas edi, doim sir saqlardi, hatto ukasiga ham bir so'z demasdi.

Romanda Boburshoh va uning tarafdoshlari tomonidan ham qo'llangan maqol, naql, xalq iboralarini mavjuddir. Yuqorida ko'rganimizdek, asarlarda keladigan leksik folklorizmlarning o'ziga xos vazifasi mavjud ekan.

“ – Ul tag'oyingizdan shu paytgacha biror yorug'lik chiqmadi, sultonim. Bundan so'ng ham hech nimadan umidvor bo'lmang, - javob qildi Qosimbek. – So'zi bilan ishi ikki bu odam sultondan kimsaga xayr kelmas. – Bergandan ham bir so'ra, bermagandan ham bir so'ra, deyдилar. So'nggi marotaba borib ko'raylik [3]”.

“Bergandan ham bir so'ra, bermagandan ham bir so'ra”

Shayboniyxon Samarqandni egallab olganidan so'ng Boburshoh ozroq odamlari bilan saroydan qochib chiqib ketadi. Shunda ularning borar yeri, turar joyi yo'q edi. Uning eng yaqin navkari Boburshohga tog'alaridan yordam so'rashini aytadi va hu maqolni keltirib o'tadi. Ushbu maqol chuqur ijtimoiy va axloqiy ma'no anglatadi. Insonlar orasida ayrimlar qo'ldan kelgancha yordam beradi, boshqalar esa bermaydi, lekin bu bermaslikka sababi turlicha bo'lishi mumkin. Balki u bergisi kelib, ammo imkoniyati yo'qdir, balki o'zi muhtojdir. Shuning uchun ham maqolda quyidagi ma'nolar mavjuddir: Faqat saxiy, boy, yordam beradigan odamlargagina rahmat aytib yurish yetarli emas; bermagan odamning ham holatini so'rash, u bilan suhbat qilish, nima sababdan bermaganini tushunishga harakat qilish kerak; ehtimol, u kimsaning o'zi yordamga muhtojdir yoki ichida armoni border, shuni tushunish uchun ham uni so'rash lozim. Bu maqolda insonparvarlik, hamdardlik, va tashqi holat bilan ichki holatni farqlay olish kabi fazilatlar targ'ib qilinadi.

Asarda mo'g'ullar xonlar Andijondan ketganidan so'ng Marg'ilon xalqi o'zlariga zulm o'tkazgan mo'g'ullarni toshbo'ron qilib, quvub yuboradilar. Boburshoh ukasi Jahongir mirzo ham qochib uning oldiga boradi. Ahmad Tanbal arka bostirib kiradi. Uning odamlari soni Boburshoh odamlari sonidan ancha ko'p edi. Ahmad Tanbal sulh tuzish uchun Boburshohga odam yuboradi. Jahongir mirzo ularni tutib o'ldirishni aytadi. Boburshoh qo'shinining soni Ahmad Tanbalnikidan kam bo'lgani uchun uni to'xtatadi.

“ – Ortimizda xon tog'alarimiz bor, - tixirlik qilardi Jahongir mirzo. – Xon tog'alarimiz uzoqda. Uzoqning donidan yaqinligi somoni afzal, qardoshim. Ular bizni to'g'rab tashlashlari mumkin. Kimga kerak bu behuda qon to'kmoq? [3]”

“Uzoqning donidan yaqinligi somoni afzal” – o'zbek xalq maqollaridan bo'lib, insoniyatning hayotiy tajribasi, real holatlarni idrok etish va amaliy fikrlash tamoyillarini aks ettiradi. Maqolning asosiy g'oyasi shundan iboratki, uzoqda bo'lgan, hatto juda qimmatli va foydali narsalar ham, agar ularni hozir va shu yerda ishlata olmasang, foydadan ko'ra xayoliy orzuga aylanishi mumkin. Aksincha, yaqin joydagi, oddiyroq narsa yoki inson – real holatda ko'proq foyda keltiradi. Bu fikr ijtimoiy, siyosiy, strategik qarorlar qabul qilishda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Bu maqol tarixiy jarayonlarda strategik fikrlash, amaliy yondashuv, va real kuch nisbati tahlilining naqadar muhimligini ko'rsatadi. Boburshohning bu qarori zamonaviy siyosatshunoslik va harbiy strategiya kontekstida ham tahlil qilinadigan

“Eti qattiq etikdo'z, beti qattiq qo'shiqchi bo'ladi”, ya'ni, etikdo'z – mehnatkash, bardoshli odam; qo'shiqchi esa (bu yerda salbiy kinoyaviy ma'noda) uyalmas, yuzsiz odam sifatida tasvirlanmoqda. Bu maqol orqali Yusuf va Bahlul Ayublarning ikkiyuzlamachiligi ochib berilgan. Oddiy tushuntirishdan ko'ra maqol ishlatish orqali Bobur hissiyatini kuchliroq ifoda etadi: U bu holatdan, aka-ukalarning xiyonatidan g'azablangan, ammo bu g'azabni nazokat bilan ifodalagan. Maqol orqali odamlarning yuzsizlarcha harakatlarini tanqid qiladi, bu esa axloqiy mezon sifatida

xizmat qiladi, ya'ni, jamiyatda qaysi xatti-harakatlar qoralanishi kerakligi ko'rsatilgan. Bobur kabi tarixiy shaxs xalq maqollarini ishlatganida bu xalq bilan yaqinligini, xalq donishmandligiga tayanishini ko'rsatadi. Maqol orqali Bobur o'z fikriga xalq donishmandligini dalil sifatida qo'shadi. Maqol bu yerda faqat kinoya emas, balki tahliliy, baholovchi, va axloqiy vosita sifatida ishlatilgan.

Bobur Mirzo tomonidan Boqibek Chag'oniyoniy bildirgan xavotirlar yuzasidan darhol keskin chora ko'rilmagan bo'lsa-da, keyingi voqealar ayblovlarning haqiqatga yaqinligini ko'rsatdi. Shunga qaramay, Boburshohning ehtiyotkor yondashuvi uni keyingi siyosiy noqulayliklardan saqlab qoldi. Bu holatga "Urushing kelsa, o'tganni; yig'laging kelsa, o'lganni qo'zg'a" degan maqol to'liq mos keladi. Bu maqol kontekstda shoshqaloqlik, o'tmishga tayangan qarorlarning salbiy oqibatlarini, mojarolarning asosan unutilgan ginalar va eski dardlar natijasi ekanini anglatadi. Bobur o'z siyosiy yetukligi orqali bu qadimiy donishmandlikni real hayotda tasdiqlaydi. Maqol matnda faqat kinoya emas, balki axloqiy va strategik ogohlantirish sifatida xizmat qilmoqda.

Bobobek Boburshohga Ahmad Tanbalning ayanchli o'limi xabarini yetkazdi. Ahmad Tanbal Shayboniyxonni mensimay kutib oladi, bundan Shayboniyxonning jahli chiqib Ahmad Tanbalni o'ldirib yuboradi.

" – Odatda barcha sotqinlarning taqdiri shu taxlit tugaydi. U avval meni, so'ngra xon tog'amizni sotdi. Oxirida esa unga Andijonni bizdan olib bergan Shohibekxonga ham xiyonat qilibdi. Biz uni kechirgan edik. Shayboniyxon kechirmabdi. Shunaqa, botir qoni yurakka, xoin qoni chelakka tomadi. Uning bu ayanchli qismati bizning yonimizda yurgan bugun va kelajakning nomdor xoinlariga ham saboq bo'lishi kerak" [3].

Bobobek Ahmad Tanbal xoinona o'limi haqidagi xabarni Boburshohga yetkazar ekan, u xalq og'zaki ijodining chuqur ma'noli maqoli — "Botir qoni yurakka, xoin qoni chelakka tomadi" degan maqolni ishlatadi. Ushbu maqol kontekstdagi xoin obrazini xalq donishmandligi mezonida baholash vositasi sifatida xizmat qiladi. Botirlar, fidoyilar, halollik yo'lida jon berganlar yuraklarda yashaydi, ularning o'limi ma'naviy og'riq keltiradi. Aksincha, xoinlar — sadoqatdan yiroq, manfaatparast, ikkiyuzlamachi kishilar tarixda sharmanda bo'ladi, ular haqida na hurmat, na xotira saqlanadi. Ahmad Tanbalning qismati ham shunday yakun topgan. Bobobek bu maqol orqali xoinlik yo'lini tanlagan har qanday insonning oxirgi manzili sharmandalik ekanini ochiq bildiradi va bu holatni kelajak avlodlarga ibrat bo'lishini ta'kidlaydi. Maqol badiiy jihatdan kuchli antiteza (qarama-qarshilik) orqali matnga obrazlilik, axloqiy-didaktik va falsafiy mazmundorlik olib kiradi.

" – Qiz onaga, o'g'il tog'aga tortar, degani to'g'ri ekan. Tog'ang Sulton Mahmudxon otasi Yunusxonga emas, sahroyi tog'alariga tortdi. Uzoqni ko'ra bilmay meni nosamimiylikda ayblab, yanglish hisob-kitob bilan Shayboniyxon qoshiga kelmoqda. U end iota yurti va taxtiga qaytib keta olmaydi. Shayboniyxon ortiq tiriklikka umid qoldirmaydigan ajal sharobini uning og'ziga quyadi. Ul sharobdan ortganini esa menga ichiradi, - nihoyat yuragi chidolmay dedi u, - to'pdan chiqsang ham, ko'pdan chiqma degan otaso'ziga amal qilmay el-yurtini tashlab chiqdi. Podshoh bo'lib bilmaydiki, eridan ayrilgan ko'mguncha, elidan ayrilgan o'lguncha yig'laydi" [3].

Ushbu parcha xalq og'zaki ijodi unsurlari bilan sermazzun boyitilgan bo'lib, tarixiy fojiani xalqona qarashlar orqali baholashning yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Muhammad Husaynning o'g'liga aytgan so'zlarida "Qiz onaga, o'g'il tog'aga tortar" maqoli orqali Sulton Mahmudxonning axloqiy-ijtimoiy ildizi, xatti-harakatining sababi nasl ruhiyatida izohlanadi. Boburshohni inkor qilib Shayboniyxon tomon o'tgan Sulton Mahmudxon "To'pdan chiqsang ham, ko'pdan chiqma" maqoli bilan xalq qadriyatlaridan yuz o'girgan shaxs sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, "Eri o'lgan ko'mguncha, elidan ayrilgan o'lguncha yig'laydi" degan xalq iborasi orqali uning o'limidan ham og'ir fojiasi — el-yurtdan ajralganini ko'rsatadi. Bu maqollar matnda badiiy obraz yaratish, tarixiy baho berish, va axloqiy-estetik xulosa chiqarish kabi vazifalarni bajarib, voqeani xalqning ma'naviy tafakkuri darajasida anglash imkonini beradi.

"Ijodkor individualligini belgilaydigan muhim omillardan biri uslub hisoblanadi [4]"

Tahlillardan ko'rinadiki, tarixiy romanlarda maqollar va iboralarning qo'llanishi voqealarni nafaqat estetik, balki axloqiy, didaktik va ijtimoiy jihatdan boyitadi. Muallif matnda xalq og'zaki ijodi vositalaridan foydalanish orqali milliy tafakkurni aks ettirgan, obrazlarning ruhiy portretini yanada to'laqonli ifodalashga erishgan. Shu ma'noda, "Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon" romanida folkloriy unsurlar – ayniqsa maqollar va iboralarning tadrijiy qo'llanishi tarixiy haqiqat bilan badiiylik uyg'unligining samarali namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, Nurali Qobulning "Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon" tarixiy romanining badiiy matnida ishlatilgan maqol, naql va xalq iboralari o'zbek og'zaki ijodining obrazlilik, umumxalq tajribasi va axloqiy-estetik qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu folklorizmlar tarixiy voqealarning ichki mohiyatini ochishda, obrazlar xarakterini yoritishda, ijtimoiy-ruhiy muhitni ifodalashda g'oyat muhim stilistik vazifalarni bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Doniyarova Sh. Istiqloq davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Filol.f.d-ri.diss. – Toshkent :2012. B-14.
2. Akbarov O. Komil Ikromov ijodida tarixiylik va zamonaviylik: Filol.f. nomz. diss. – Toshkent, 1997. – B .120.
3. Nurali Qobul. Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon. – Toshkent :Info Capital Books, 2024. – 14-b.
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., K.Rixsiyeva. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent :G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2022. – B -123.
5. Nurali Qobul. Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon. – Toshkent :Info Capital Books, 2024. – B -28.
6. Nurali Qobul. Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon. – Toshkent :Info Capital Books, 2024. – B-40.
7. Nurali Qobul. Bu dunyo do'zaxi yoxud Boburshoh va Shayboniyxon. – Toshkent :Info Capital Books, 2024. – B-88
8. Panayeva O'.B. Hozirgi o'zbek she'riyatida tarixiylik konsepsiyasi. Filol.f.a.nomz.. – Toshkent :2006.-63-b.